

**SENSOR ALALIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI,
DIAGNOSTIKASI VA UNI KORREKSIYA QILISH**

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Alfraganus Universiteti Defektologiya yo'nalishi talabasi

Karimova Zulfiya Abdurahmonovna

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya kafedrası o'qtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sensor alaliyaning kelib chiqishi, diagnostikasi va davolash usullari haqida ma'lumot berilgan. Maqolada sensor alaliya bilan bog'liq muammolar va ularni yengish uchun qo'llaniladigan terapiya usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: sensor alaliya, sensor integratsiya, nutq buzilishi, bolalar rivojlanishi, sensor qobiliyatlar, diagnostika, motor, teri taktil, praksis, koordinatsiya, modalit, terapiya, fizotarapiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины возникновения сенсорной алалии, методы ее диагностики и лечения. Анализируются проблемы, связанные с сенсорной алалией, и терапевтические подходы, направленные на их преодоление.

Ключевые слова: сенсорная алалия, сенсорная интеграция, расстройство речи, развитие ребенка, сенсорные способности, диагностика, мотор, тактильная кожа, праксис, координация, модалит, терапия, физотарпия.

Abstract: This article examines the causes of sensory aphasia, its diagnosis, and treatment methods. The article analyzes the problems associated with sensory aphasia and the therapeutic approaches aimed at overcoming them.

Keywords: sensory aphasia, sensory integration, speech disorder, child development, sensory abilities, diagnostics, motor, tactile skin, praxis, coordination, modalitis, therapy, physiotarapia.

Kirish:

Sensor alaliya - bu nutqni qabul qilish va tushunish buzilishi bo'lib, bolalarda turli sensor qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Sensor alaliya tashxisi bo'lgan bolalar tovushlarni to'g'ri qabul qilish, ularni farqlash va nutqni tushunishda qiyinchiliklar mavjud bo'ladi.

Sensornaya alaliyaning kelib chiqish sabablar turli omillarga bog'liq bo'lishi mumkin:

- Markaziy nerv tizimining shikastlanishi: Tug'ma nuqsonlar, bosh miyaning yallig'lanishi, infeksiyalar, travmalar.

- Ontogenetik omillar: Homiladorlik davridagi muammolar (toksikoz, infeksiyalar, gipoksiya), tug‘ruq jarayonidagi shikastlanishlar.
- Sotsial omillar: Bolaning ijtimoiy muhiti, oiladagi munosabatlar, yetarli darajadagi til muloqotining yo‘qligi.
- Boshqa omillar: Eshitish va ko‘rish organlarining nuqsonlari, boshqa nutq buzilishlari, autizm spektr buzilishlari sensor alaliyani kuchaytirishi mumkin.

Sensor alaliya bolalarda turli sabablarga ko‘ra yoki turli sensor integratsiya qiyinchiliklari bilan kelib chiqadi. Bu buzilishlar sensor integratsiya qiyinchiliklari bilan bog‘liq bo‘lgan holda ularning nutqni qabul qilish va tushunish qobiliyatlariga o‘z salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Sensor alaliya bolalarda quyidagi sabablarga ko‘ra kelib chiqishi mumkin:

- Tovushlarni eshitish va farqlashdagi qiyinchiliklar.
- Vizual va ta‘sirli sensor ma‘lumotlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar.
- Motor harakatlarni boshqarishda qiyinchiliklar.

Sensor alaliya haqida olimlarning fikri turlicha. Ba‘zi olimlar uni mustaqil nutq buzilishi deb hisoblasa, boshqa olimlar uni eshitish qobiliyatining pasayishi bilan bog‘liq deb sanashgan. R.E. Levina sensor alaliyani mustaqil nutq buzilishi deb ta‘kidlagan va uni miyaning nutq markazlarining chala rivojlanishi bilan bog‘liq deb hisoblagan.

R.E. Levina fikricha, sensor alaliyada eshitish qobiliyati normada bo‘lishi mumkin, ammo bola nutq tovushlarini idrok eta olmasligi mumkin.

Ba‘zi olimlar sensor alaliyani eshitish qobiliyatining pasayishi bilan bog‘liq deb hisoblashgan. Ularning fikricha, eshitish qobiliyatining pasayishi nutq tovushlarini idrok etish qobiliyatiga ta‘sir qiladi va bu esa sensor alaliyaga olib kelishiga sabab bo‘ladi.


Sensor alaliyaning diagnostikasi uchun turli usullar mavjud. Bolalarda sensor alaliya belgilarini va ularning nutq buzilishi darajasini aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Bolalarning sensor qobiliyatlarini tahlil qilishda foydalaniladigan testlar. Testlar bolaning sezgi organlari (ko‘ruv, eshituv, teri taktil, ta‘m, hid) orqali olingan ma‘lumotlarni qayta ishlash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi.

Masalan: Ko‘ruv idrokni tahlil qilish.

Materiallar: - Rangli kartalar, rasmlar, shakllar.

Vazifa: Bolaga turli rangdagi kartalar yoki shakllarni ko‘rsatiladi va ularni farqlashi so‘raladi. Ko‘ruv idrokini baholash uchun boladan ko‘rsatilgan narsaning rangini yoki shaklini aytishi so‘raladi.



- Sensor integratsiya va praksis qobiliyatlarini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan testlar. Ushbu testla turli sensor modalitlar bo'yicha bolalarning qobiliyatlarini baholashga yordam beradi va ularning sensor va praksis qobiliyatlarini rivojlantirishda ahamiyati katta.

Masalan: Muvozanat va koordinatsiyasini tahlil qilish.

Materiallar: -Muvozanat doskasi va turli motor vazifalar uchun materiallar (masalan, to'p, arqon).

Vazifa: Bolaga muvozanat doskasida turishni yoki oddiy harakatlarni bajarishni so'raladi. Bir oyoqda turish, to'pni uloqtirish va tutish kabi vazifalarni bajarishi so'raladi.



- Bolalarning kundalik hayotida sensor alaliya belgilari va nutq buzilishi darajasini kuzatish uchun foydalaniladigan usullar.

Sensor alaliya davolash usullari sensor integratsiya terapiyasi bilan bog'liq. Sensor integratsiya terapiyasining vazifasi bolalarning sensor qobiliyatlarini rivojlantirish va nutq buzilishi darajasini yengishga yordam beradi. Sensor integratsiya terapiyasining asosiy jihatlari va usullari quyidagilardir:

- O'yin terapiyasi: Bolalarga turli sensor ma'lumotlarga mos ravishda javob berishni o'rgatadi.

Masalan: Ranglarni topish.

Maqsad: - Bolalarga ranglarni farqlashni o'rgarish.

- Ko'z bilan muvofiqlashtirish qobiliyatlarini ruvojlantirish.

- Ijtimoiy muloqot va nutq qobiliyatlarini o'strish.

Materiallar: - Rangli kartalar.

- Shablonlar(rangli doiralar, kvadratlar, yulduzlar).

Mashg'ulotning borishi:

- O'yin bilan tanishtirish va ranglar haqida qisqacha ma'lumot berish.

- Kartalarni stolga qo'yib bolalardan ma'lum bir rangni topib berishni so'rash (masalan, "Iltimos, qizil kartani ko'rsat").

- Bolalar kartalarni topgandan keyin, ularning to'g'ri ekanligini tasdiqlash.

- Rangli shablonlarga mos rangli kartochoikalarni topib berishini so'rash (masalan, "Iltimos, qizil doira uchun mos keladigan kartani topib ber").

- Bolalar kartalarni topgandan keyin, ularning to'g'ri ekanligini tasdiqlash.

- O'yin davomida bolalar bilan muloqot qilish va ularni ranglar va shakllar haqida gapirishga undash.

- Bolalardan rangli kartalarga a'loqador so'zlarni takrorlashni so'rash (masalan, "Bu qanday rang?", "Bu qanday shakl?").

- Musiqa terapiyasi: Bolalarning sensor qobiliyatlarini shakillantirishga yordam beradi.

Maqsad:

- Bolalarning eshituv qobiliyatini rivojlantirish.

Materiallar: - Baraban yoki nog'ora.

- Musiqa.

Mashg'ulotning borishi:

- Bolalarni musiqa asboblari bilan tanishtirish va musiqa haqida qisqacha suhbat qilish.

- Har bir asbobni qanday ishlatish kerakligini ko'rsatish.

- Bolalarga qisqa va oddiy ritm yaratishni o'rgatish. (Masalan, barabanga urib, oddiy ritm yaratish.)
- Bolani mashg'ulot davomida maqtash
- O'yin davomida boladan musiqaga mos ravishda ovoz chiqarishni so'rash.
- Boladan ritmni so'zlar bilan ifoda etishni so'rash (masalan, "Bir, ikki, uch, to'rt").
- Fizoterapiya: Bolalarning motor qobiliyatlarini rivojlantirish va muvozanatni saqlashni yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa:

Sensor alaliya bolalarda nutq buzilishi va sensor integratsiya qiyinchiliklari bilan kelib chiqar ekan. Ushbu buzilishlarni davolashda kompleks yondashish muhim ahamiyatga ega ekan. Davolash jarayoni davomida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini mustahkamlash va ularning nutq va eshituv qobiliyatlarini yaxshilashga e'tibor qaratishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayres, A. J. (1979). *Sensory Integration and the Child*. Western Psychological Services.
2. Schaaf, R. C., & Mailloux, Z. (2015). *Clinician's Guide for Implementing Ayres Sensory Integration: Promoting Participation for Children with Autism*. AOTA Press.
3. Bundy, A. C., Lane, S. J., & Murray, E. A. (2002). *Sensory Integration: Theory and Practice*. F.A. Davis Company.
4. Miller, L. J. (2006). *Sensational Kids: Hope and Help for Children with Sensory Processing Disorder (SPD)*. Perigee Trade.
5. Dunn, W. (2001). *The Sensory Profile: User's Manual*. Psychological Corporation.